

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
27	61040300	Yo'l harakatini tashkil etish	+	+	Yo'l xarakat muxandisi

#### Yo'nalish tavsifi

Harakat xavfsizligi va uni tashkil etish bakalavr yo'nalishi - fan va texnika sohasidagi ta'lim mutaxassisligi bo'lib, u xalqaro tajribalarga muvofiq yo'l xarakatini boshqarish va tartibga solish, harakat xavfsizligini ta'minlash, harakat xavfsizligi sohasini boshqarishning umumiy tizimi, yo'l-transport hodisalarini ekspertiza qilishning zamonaviy usullaridan foydalanishga yo'naltirilgan inson faoliyati vositalari, usullari va yo'llari majmuini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohaslarining davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati tizimlari, mulkchilikning turli shakllaridagi avtomobillarda tashuvchi korxonalar, haydovchilarni tayyorlovchi muassasalar, avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini tashkil etish va uning texnik vositalarini ishlab chiqish korxonalari, yo'l harakatini tartibga solish va boshqarish vositalari, mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida yo'l harakati xavfsizligini tashkil etish va boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish, yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini ishlab chiqish va o'rnatish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning innovasion usullarini ishlab chiqishda faol qatnashish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.